

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021- yil yanvar- avgust oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar- avgust oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




(1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **26,8** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **24,7** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



190



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

2 967




Ishlab chiqarish sanoati

42



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

56



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 3 255 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,7 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 25,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,2 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 8,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,8 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 20,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 43,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,1 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




10,1 foizga oshdi




Mikrofirkmalar



Kichik korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida




- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
- fuqarolik obyektlarini qurish
- bino va inshootlar qurish

2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 477 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,1 % ga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 10,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,4 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 20,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 9,8 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 5,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,8 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 6 291 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,6 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan - 29,9 % ga (jami savdodagi ulushi 70,8 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 21,1 % ga (jami savdodagi ulushi 21,1 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan - 25,9 % ga (jami savdodagi ulushi 8,1 %) o'sishidir.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

398



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

12




• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

9




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofirmalar

Kichik korxonalar




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,8** foizga oshdi






Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofirmalar

Kichik korxonalar



16,8
foizga oshdi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




102
yashash bo'yicha xizmatlar




1 293
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 395 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,8 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 16,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,7 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 17,2% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,3 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 1 941 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 454 ga yoki 30,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 854 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 435 ga yoki 30,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 341 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 77,7 % ga tashkil etdi.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 15 340 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 214 ga yoki 26,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 665 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 037 taga yoki 26,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 417 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 657 taga yoki 37,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxon va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxon va tashkilotlar soni 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 179 tani tashkil etib, ulardan 178 tasi yoki 99,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 17 taga yoki 10,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida 17 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxon va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


16

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	178	110	68
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	6	2	4
Beruniy	12	5	7
Bo'zatov	5	5	0
Qorao'zak	12	9	3
Kegeyli	6	5	1
Qo'ng'iro't	8	6	2
Qonliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	36	26	10
Nukus	10	5	5
Taxiatosh	11	4	7
Taxtako'pir	4	3	1
To'rtko'l	6	5	1
Xo'jayli	4	2	2
Chimboy	4	3	1
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	4	3	1
Nukus sh.	39	22	17

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 39 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 21,9 %), Mo'ynoq 36 ta (20,2 %), Beruniy va Qorao'zak 12 ta (6,7%), Taxiato'sh 11 ta (6,2 %), Nukus tumani 10 ta (5,6 %), Amudaryo, Kegeyli, Qonliko'l va To'rtko'l tumanlarida 6 tani (3,4 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,4 %), To'rtko'l (10,3 %), Beruniy (8,5 %), Amudaryo (7,4 %), Ellikqal'a (6,1 %), Qo'ng'iro't (5,6 %), Xo'jayli (5,1 %), Nukus (4,4 %), Chimboy (4,0 %), Taxi-atosh (3,2 %), Kegeylida va Qorao'zakda (2,9 %), Qonliko'l va Mo'ynoqda (2,7 %), Shumanay (2,6 %), Taxtako'pir (1,8 %) va Bo'zatov (1,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar- avgust oylarida, birlikda)

2021- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (25,0 %), To'rtko'l (9,0 %), Beruniy (8,9 %), Amudaryo (7,1 %), Ellikqal'a (6,4 %), Nukus (4,2 %), Xo'jayli (5,7%), Qo'ng'iro't (4,7%), Chimboy (4,5 %), Kegeyli (3,4 %), Bo'zatov (2,8 %), Mo'ynoqda (4,0 %), Qonliko'l (3,1 %), Taxi-atosh (3,3 %), Shumanay (3,0 %), Qorao'zak (2,8 %), Taxtako'pir (2,1 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,5 %), To'rtko'l (10,9 %), Beruniy (7,5 %), Amudaryo (6,6 %), Nukus (5,2 %), Qo'ng'iro't va Xo'jayli (5,1 %), Ellikqal'a (4,2 %), Chimboy (4,1 %), Qorao'zak (3,2 %), Kegeyli va Mo'ynoq (3,0 %), Taxiatosh (2,4 %), Bo'zatov, Qonliko'l va Shumanay (1,7 %), Taxtako'pir (1,1 %) tumanlari hissasiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 61 224-92-09